

201
A
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

25-may kuni respublikamizdagi barcha umumta'l'm maktabalarida «Qadrdon maktabimiz bag'rida o'qib-o'rganish, doimo izlanish, yangilikka, taraqqiyot cho'qqilarini egallahsha intilib yashaymiz!» shiori ostida o'quv yili yakunlariga bag'ishlangan tantanali saflanish tadbirlari bo'lib o'tdi.



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:22 (67187)
2018-yil 28-may

Tong yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshilagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasি

www.tongyulduzi.uz

ISSN – 2010-6092

Uyingizga oftob oling,
Bittagina kitob oling...



- Kitob bayrami doirasida o'tkazilgan so'rovnomalarda faol ishtiroy etganimiz uchun bizga «Tong yulduzi» gazetasining yangi sonlari va badiiy kitoblar sovg'a qilindi, - deydi Angren shahridagi 4-umumta'l'm maktabi o'quvchilari.

3-bet

Dunyoda eng katta boylik -
yoshlikda olingan bilim va
egallangan kasb-hunardir.

Shavkat MIRZIYOV

ONA VATAN MADHI

Poytaxtimizdagi 300-DIUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi Tamara Ahmedova tajribali pedagog sifatida ko'pchilikning mehrini qozongan. Usto yosh shogirdlariga turli fanlardan bilim berish bilan birga, ular qalbida Vatan, ona tabiatga mehr uyg'otish yo'lida turli tadbirilar o'tkazishni yaxshi an'anaga aylantirgan.



Tajribali muallima tomonidan tashkil etilgan 4-sinf o'quvchilari ishtirokidagi «Ona Vatan madhi» mavzusidagi kechanli kuzatarkanman, murg'ak qalblardagi e'zgulikka bo'lgan intilishni ko'rib, behad quvondim.

– Har bir tadbiriga bolajonlar bilan uzoq tayyorgarlik ko'ramiz. Qachonki, ular o'qiyotgan she'rлari, qilayotgan ishlarini chin dildan his qila olganlaridagina, mehnatimiz samarasini namoyon etishga harakat qilamiz. Vatanni sevish lozimligini bolajonlar qalbiga bugundan boshlab singdirishimiz lozim. Shundagina ko'zlagan maqsadlarimizga erishamiz, – deydi ustoz T. Ahmedova.

Bolajonlar kuy-qo'shiq va sahna ko'rinishlari orqali yurtga bo'lgan mehrlarini namoyon etdi.

Yusuf ABDULLAYEV

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 6-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida

«KITOBIM — OFTOBIM» nomli tadbir bo'lib o'tdi.

Tadborda yoshlarni mutolaa madaniyatini shakllantirish, kitobga mehr uyg'otish kabi ustuvor maqsadlarga alohida e'tibor qaratildi. Kechada faol ishtirok etgan 3-«Z» sinf o'quvchilari kitobxonlik to'g'risida ibratlari naqlar, she'rлari, taniqli insonlarning fikrilarini aytib o'tdi. Badiiy asarlardan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'zlarini keltirgan kitoblarini muktab kutubxonasiga sovg'a qildi. Quvonarlisi, shu kuni ushbu ziyo maskani 200 ga yaqin badiiy adabiyotlar bilan boyidi.

– Kitob o'qishni juda yaxshi ko'raman, – deydi 3-«Z» sinf o'quvchisi Nigora Ismoilova. – Kitob bizning chin do'stimizdir. Kelajakda o'zimni katta kutubxonam bo'lismeni orzu qilaman.

Shuningdek, tadborda o'zbek milliy kuy-qo'shiqlari va raqslar ijro etildi.

Nodira ZIYAYEVA,
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Aziz o'quvchilar! Ota-onangiz, ustozlaringiz qatori butun xalqimizning orzusi sizni kelajakda ma'naviyatli, bilimli inson sifatida yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishin gizni ko'rishdir. Buning uchun esa sizga ozgina yo'l-yo'riq, rag'bat kerak, shundaymi?! Bu boroda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faollari sizga yaqindan ko'mak beradi. Hatto, o'quv dargohingizda bo'lib, o'quvchilar bilan yuzma-yuz suhbatlashadi.

O'QUVCHILAR YURT FAXRIGA AYLANADI

Markazning navbatdagi tadbirdi poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 34-umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirokida tashkil etildi. «Ma'rifatli yoshlar – millat faxri» mavzusidagi uchrashuvda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri aktyori Umid Shodmonov ham ishtirot etdi. Suhbat davomida mehmonlar o'quvchilarga bugun yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgan yoshlarimizga havas qilib, ular-



ga ergashish kerakligini ta'kidladi. Shunda ta'lim maskanining 7-sinf o'quvchisi Shahzoda Ortigova maktabida iqtidorli va iste'dodli tengdoshlari talaygina ekanligi haqida so'zlab berdi. Tadbir yakunida barcha yigit-qizlar kelajakda yurt faxriga aylanishga va'da berdi. Shuningdek, o'quvchilarga turli kitoblar va gazeta-jurnallar sovg'a qilindi.

Sayyora QODIROVA



**Yak-katut qishlog'i –
Toshkent viloyatining
so'lim Bo'stonliq tumanida
joylashgan. Qishloqdagagi mo'jazgi-
na 39-umumta'lim maktabi 2015-
yil qayta qurilib, foydalishiga
topshirilgan. O'quv dargohiga o'n
sakkiz yildan buyon Baxtiyor
Sulaymonov rahbarlik qilib keladi.**

A'LOCHI QIZ SHODIYA

Bugun sizga muktabning eng a'lochi o'quvchilari dan biri haqida hikoya qilmoqchimiz. 9-sinfda ta'lim olayotgan Shodiya Ubaydullayeva bir necha yildirki, geografiya fanidan «Bilimlar bellashu-

vi»da qatnashib, yuqori natijalarni qo'lg'a kiritib kelmoqda. Joriy o'quv yilida u mazkur fandan olimpiadaning viloyat bosqichida muvaffaqiyatlari ishtirot etdi. Tanlovning birinchi bosqichida 50 balli amaliy ish bo'yicha 48 ball to'pladi.

– Olimpiada murosasiz tarzda kechdi. Xuddi ustozimiz darsni qiziqarli o'yinlar asosida tashkillashtirgani kabi hay'at a'zolari ham har bir ishtirokchini ruhan qo'llab-quvvatlab turdi, – deydi Shodiya. – Hattoki, menga telefon raqamlarini ham berishish. Endi men istagan vaqtida geografiya oид jumboqli savollar, tushunilishi qiyin terminlar yuzasidan ularga murojaat qilishim mumkin.

– Shodiya nafaqat a'lochi, balki muktabda o'tkaziladigan tadbirdarda yaxshi tashkilotchi hamdir. U boshchiligidagi muktab sinf sardorlari kengashi a'zolari «Eng faol sinf sardorlari kengashi» ko'rlik-tanlovingan tuman bosqichida g'oliblikni qo'lg'a kiritib, kompyuter jamlanmasi bilan taqdirlandi, – deydi ta'lim muassasasining yoshlar ittifoqi tashkiloti raisi Nigina Tadjiddinova.

Shodiya Ubaydullayeva kelajakda Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga o'qishga kirib, yetuk bolalar shifokori bo'imoqchi. Buning uchun hozirdanoq harakatni boshlab yuborgan. Qanday qilib deysizmi? Albatta, izlanib, o'qib-o'rganib-da. Hatto sohaga oid ko'plab kitoblarni ham mutolaa qilmoqda. Bunda unga akasi Xurshid yaqindan yordam bermoqda. Biz ham izlanuvchan tengdoshingizga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Feruza ABDUSAMAD qizi

Uyingizga oftob oling, Bittagina kitob oling...

Shu yilning 24-25-may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlari hamda Toshkent shahrida «Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish buyuk maqsadlarimizga erishishning muhim kafolatidir» shiori ostida Respublika kitob bayrami o'tkazildi.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, Xalq ta'limi vazirligi va boshqa qator tashkilotlar hamkorligida bo'lib o'tgan Respublika kitob bayrami poytaxtimiz markazi – Sayilgoh ko'chasiidan boshlandi. Unda yurtimizda faoliyat yuritayotgan 100 dan ziyod nashriyot va ijodiy ulyari, matbaa korxonalar hamda kitob savdosi tashkilotlari tomonidan kitob va kitob mahsulotlari ko'rgazmalari tashkil etildi. Shuningdek, shoir va yozuvchilar,

yosh ijodkorlar bilan bo'lgan adabiy uchrashuvlar bayram ishtirokchilariga olam-olam zavq ulashdi. Ayniqsa, «Eng yaxshi kitobxon», «Yosh kitobxon», «Kitob o'qishni yoqtirasizmi?» mavzusidagi ijtimoiy so'rovlari, «Eng faol ishtirokchi» kabi nominatsiyalarda yosh kitobxonlarning faoliyi kuzatildi.

«Tong yulduzi» gazetasi ham Yunusobod turmanidagi 274-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi Maftuna Mahmudovani «Eng yaxshi kitobxon», uning ustozni Mahmuda Valiyevani esa «Eng ma'rifatparvar



Anvar OBIDJON, O'zbekiston xalq shoiri:

– Kitob bayrami ushbu sayilgohda o'tayotgani menga juda manzur bo'ldi. Sababi, bu ko'chalarida avval ijodkor do'stlarimiz bilan yangi mavzular haqida suhbat qurardik. Mana, yillar o'tib, yana ushbu sayilgohda ular bilan uchrashganimdan xursandman. Bir chekkadan nazar tashlab, bolalarning «Tong yulduzi» gazetasi, «G'uncha», «Gulxan» jurnallari oldida yig'ilishib turganlari, ularning qadrondan o'quvchilari ekanligidan dalolat beradi. Albatta, gazeta, jurnallar kitobxonlarni yetishtiradi, bolalarda mutolaaga bo'lgan qiziqishni orttiradi, ularni kitobxon qilib tarbiyalaydi. Shunday bayramlar ko'proq o'tkazilsa, o'quvchilar yangi asarlar, yangi nashrlar bilan yaqindan tanishadilar.



Zilola JO'RAYEVA,
Sergeli tumanidagi 317-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi:

– Bo'sh vaqtimda asosan sport bilan shug'ullanaman. Ammo, kitob o'qish jon-u dildim. Bayramga onam bilan keldim. Kitoblar xarid qilib, turli viktorinalarda ishtirok etdim.

Tunda talpinganga mohtob kerakdir,
Kundai kulay desang, kitob kerakdir.

targ'ibotchi ustoz» faxriy yorlig'i bilan rag'batlantirdi. Ushbu yorliqni O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon qo'llidan qabul qilish Maftuna hamda ustozni Mahmuda opani yanada zavqlantirdi.

Shuningdek, shoir va yozuvchilarimizning ham yangi nashrdan chiqqan kitoblari taqdimoti bo'lib o'tdi. Jumladan, Dilfuza Shomalikovaning «O'zbekiston» NMUda chop etilgan «Tuproq o'ynayotgan bola» kitobi yuzasidan berilgan salov-javoblar davraga quvnoqlik olib kirdi. Muallif angrenzlik o'quvchilarning ushbu kitob nomi haqidagi savoliga quyidagicha javob berdi:

– Vatan tuprogi'i aziz. Ota-bobolarimizning muqaddas xoki u. Tuproq o'ynayotgan bola o'z ajdodlarining ruhiy saboqlari bilan g'oyibona suhbatlashadi, kuch oladi, quvvatga to'ladi. Shu kuch bilan Vatanga munosib farzand bo'lib kamolga yetadi.

Shunday ekan, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ta'kidlaganidek:

**Uyingizga oftob oling,
Bittagina kitob oling...**

Xudoibek TO'XTABOYEV

O'zbekiston xalq yozuvchisi:

– Durdona asarlar yaratish mumkin bo'lgan zamonda yashayapmiz. Ularni Yevropaga ham olib chiqib, bu orqali o'zbek adabiyotini dunyoga tanitaylik.



Muxlisa ABDUQODIROVA, Toshkent viloyati, Angren shahridagi 4-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi:

– Biz har yili shu bayramda ishtirok etamiz. Sevimli yozuvchilarimizning qo'llaridan kitob olib, yuzma-yuz ko'rishamiz. Shoir Nodir Jonuzoq bilan bo'lgan suhbat menga juda yoqdi. Tadbirda she'r ham aytib berdim:

Qo'linda «Tong yulduzi»,
Menman uning muxlisi.
Har sahifa qadrondon,
Yangilik olamjahon.

Doim qiziqish bilan
Gazetani o'qiyan.
Do'starga havas qilib,
Yangi she'riar to'qiyan.

Omina HAMIDUL-LAYEVA, poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 219-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi:

– Oynayi jahon orqali ushbu tadbir haqidagi reklamani ko'rib qoldim. Mohira buvujonimdan tezroq ushbu bayramga olib borishlarini so'rading. Ikkimiz bugun o'zimizga qiziq bo'lgan yangi asarlarini xarid qildik. Ular menga Jahon xalq ertaklaridan «Donishmand vazir» kitobini olib berdilar.

Bu bayramga kelganimdan juda xursandman.

O'z shogirdlarida mehnatdan zavqlanish
xislatlarini uyg'ota bilgan muallim
sharaflarga munosib.

Maktabimiz xalq amaliy san'atiga ixtisoslashgan. Bu yerda qizlar zardo'zlik, tikuvcilik, to'quvchilik kabi hunarlarni puxta o'rgansa, o'g'il bolalar yog'och o'ymakorligi, tasviriy san'at sirlaridan boxabar bo'ladi. Xalqning ma'naviy ildizlaridan uzilmagan holda ta'lim-tarbiya berilayotgan shunday ma'naviyat maskanida o'nlab fidoyi, tajribali ustozlar bilan bir safda faoliyat yuritayotganidan hamda bu bilan buyuk kelajakni yaratishdek savobli ishga munosib hissa qo'shayotganidan baxtiyorman.

ISHTIROKIMDAN MAMNUNMAN

Bilim maskanimizda O'zXDP tuman bo'limi, «Ziyo» mahalla fuqarolarig'i ni bilan hamkorlikda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi. O'quvchilar o'z sinf rahbarlari bilan turli muzeylear, teatr tomoshalariga borib, u yerlarda xalqimizning boy madaniy merosi, tarixini o'rganishadi. Bu kabi ezgu ishlar orqali o'g'il-qizlar qalbida milliy urf-odatlarimizga muhabbat, san'atga mehr, madaniy yodgorliklarimizga hurmat tuyg'usi shakllanmoqda.

Yaqinda o'zim rahbarlik qilayotgan 3-«E» sinfini O'zbekiston tarixi Davlat muzeiyiga sayohatga olib bordim. Bu yerdagi tarixiy buyumlar, o'tmishimizga oid qimmatli ma'lumotlar, ayniqsa, o'zbek xalqining faxriga aylangan Islom Karimov hayoti hamda faoliyatiga oid ma'lumotlar o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Gulidaxon MAVLONOVA,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 326-umumta'lim maktabining
boslang'ich sinf o'qituvchisi

HUSNIDDINDAN O'RNAK OLING

Mamlakatimizda uyda yakka tartibda ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlarga ham tengdoshlari qatori erkin bilim olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.



9-«D» sinf o'quvchisi Husniddin Bozorov uyda yakka tartibda ta'lim olsa-da, tirisqoqligi, ilmga chanqoqligi va samimiyligi uchun barchaning hurmatini qozongan. U darsdan bo'sh vaqtlarida muassasamiz oldidagi 11-musiqi va sa'natga ixtisoslashtirilgan maktabda «Yog'och o'ymakorligi» to'garak mashg'ulotlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Husniddinning oila a'zolari va ustozlari qo'lg'a kiritayotgan yutuqlardan benihoya mammun. O'quvchilarimiz orasida irodali, Vatanga muhabbatli, ilmga tashha, mehnatkash yoshlarimiz borligi bizni behad quvontiradi. Ishonamizki, kelajakda u yurtimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan baxtiyor yoshlar safida bo'ladi.

Mehrinisho JAMOLOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining
amaliyotchi psixologi

Tong yulduzi

4-«B» G'OLIB

O'tkir Hoshimov «Kitob shubhasiz, sakkizinch mo'jizadir», deganda haq edi. Chunki har birimiz kitob orqali xat-savodimizni chiqaramiz, dunyoni taniyimiz, tafakkurimizni o'stiramiz.

Yaqinda maktabimizda «Yosh kitobxon» tanlovi tashkil etildi. 3-4-sinf o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan bellashuvda bolalar o'zlarini o'qigan asarlari yuzasidan «Men sevgan qahramon» mavzusida insho yozdi. Shuningdek, «Men yod olgan she'lar» mavzusida she'r yod olib, «Maqollar janjiri» shartida maqollar aytdilar. «Yosh aktyor» shartida esa qatnashchilar o'qigan asarlari sahna ko'rinishi orqali namoyish etdi.

Yakunda 4-«B» sinf o'quvchilar bir ovozdan g'olib deb topildi. Ularga tadbir tashkilotchilari tomonidan kitoblar sovg'a qilindi.

Sanam HAYITOVA,

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 8-umumta'lim maktabining
boslang'ich ta'lim o'qituvchisi

KASBIM - FAXRIM

Maktabimizning 9-sinf o'quvchi-qizlari o'rtasida «Kasbim - faxrim» mavzusida tanlov tashkillashtirildi.

Mazkur tadbirda qizlar jamoasi 5 ta shart bo'yicha o'z mahoratlari sinovdan o'tkazdi. 1-shartda ular badiiy chiqish orqali sinf, jamoalari va tanlagan kasblari haqida ma'lumot berishdi. Keyingi «Intellektual ring» shartida ishtirokchilar ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy mavzudagi va yoshlar ittifofi hamda maktabda tashkil etilgan «Qizlarjon» klubi faoliyatiga oid savol-larga javob berdi. «Kasbim-faxrim» sharti esa ma'lum bir kasbni sahna ko'rinishi orqali namoyish etishga asoslandi. Erkin mavzudagi chiqishlari orqali qizlar ijodiy qobiliyatlar, qo'l mehnatiga oid iste'dodlarini namoyish etdi. Qatnashchilarining qanchalik pazanda ekanliklari esa «Pazanda qizlarjon» shartida bilindi.

Ana shunday rang-barang va maroqli o'tgan tanlov barchaga xush-kayfiyat ulashdi.

Nilufar HAYDAROVA,

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 1-DIUM mehnat fani o'qituvchisi

MA'NAVİYAT BAYRAMI

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 3-umumta'lim maktabida
«Kitob marafoni» tashkil etildi.

Tadbirga O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'sratgan xalq ta'limi xodimi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosи Muhamayo opa To'laganova, yangiyo'llik tanqli shoirlar – Erkin Akromov, Sobira Normatova, pedagog Gulnora opa To'laganovalar tashrif buyurdi.

Dastlab, Muhamayo opa hozirgi zamон yoshlaringin kitobga, adabiyotga bo'lgan mehri, dunyoqarashi haqida so'z yuritdi. O'quvchilar bir qancha she'rлarni yoddan aytib, kechaga yanada fayz kiritdi. Aziza Zulfizarova, Zilola Komiljonova kabi faol o'quvchilar o'zlarini qiziqitrgan savvollarga ustozlardan atroficha javob oldi.

– Ko'p o'qigan insonning tili ravon, hozirjavob, bilimdon bo'ladi. Ular bo'sh vaqtlarini behuda o'tkazmasdan, kitob mutolaa qiladi, – deydi Muhamayo opa.

Tadbir barchada katta taassurot qoldirdi.

Muzaffar AHMEDOV

HUNARLI KISHI XOR BO'LMAS

Yaqinda yakunlangan texnologiya fani oyligida maktab o'quvchilar faol qatnashdi. Fanga oid to'garak xonalari hunar o'rganishni ixtiyor etgan qizlar bilan gavjum bo'ldi. Ayniqsa, maktabning 7-«A» sinf o'quvchilar – Loba Isroilova, Odina Sodiqova, Umida Adixonavalor oylik doirasida boshqa o'quvchilarga namuna bo'ldi. «Qizlar davrasida», «Mohir qol'lar» singari bellashuvlarda qizlar o'zlarining epchilligi, chaqqonligi va iqtidorini namoyish etdi. Ta'til kunlari ham ular jonaison maktablari quchog'ida tashkil etiladigan oromgohda hunar o'rganishni maqsad qilgan. Biz ustozlar esa, albatta, bundan mammunmiz.

Xonzoda ODISOVA,

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
35-umumta'lim maktabining texnologiya fani o'qituvchisi



Tengoshlari orasida ijodkorligi bilan ajralib turuvchi Aziza Zulfiqorova Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 3-umumta'l'm maktabining 3-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiydi.

DUGONALAR HAVASDA

Aziga barcha sinfdoshlari havas bilan qaraydi. U ko'pitob mutolaa qiladi, sevgan ertak qahramonlarining chiroli rasmilarini chizadi. Yosh iqitidor egasining aytishicha, avvaliga uni ota-onasi san'at to'garagiga olib borgan, ammo qizchaning sportga mehri ustun kelib, karate bilan shug'ullana boshlagan. Ayni paytda, tengdoshingiz murabbiy Mirsobit Ziyotov qo'l ostida sport sir-asrorlarini qunt bilan o'zlashtirmoqda.

Aziza shu yili viloyat miqyosida o'tkazilgan yirik musobaqada 2 ta oldin, Keles shahrida bo'lgan turnida esa kumush medalni qo'liga kiritdi. Qolaversa, u tuman va viloyat ochiq birinchiliklariда ham turli medallarga sazovor bo'ldi.

Aziza sinf rahbari Dilfuza Ziyomuhammedova ko'magida turli hikoya va ertak kitoblarini mutolaa qilishni yoqtiradi. Dugonalari Maktuba va Dilshoda bilan o'qigan asarlari yuzasidan o'zaro fikr almashadi. Shuningdek, yaqin dugonalari bilan rassomlik va rus tili to'garaklariga qatnaydi. Azizaning chizgan rasmilarni Toshkent viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida o'tkazilgan tanlovda yuqori baholanib, faxriy yorliq bilan mukofotlangan.

Buvisi Anifa aya nevaralariga orastalik, odob-ahloq haqida ko'p tavsiyalar beradi. «Tarbiya, eng avvalo, ostonadan boshlanadi. O'zi yashab turgan xonadonni orasta saqlagan qiz, yurtini ham oboq qiladi», deydi ular.

— Buvijonim men tahsil oladigan ta'l'im maskanida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari bo'lib ishladi. Maktabdagi yumushlari ko'pligiga qaramay, biz nabiralar uchun, albatta, vaqt topadi. Ular bilan birga uy vazifalarini tayyorlaymiz, qiziqarli ertak va badiiy kitoblar mutolaa qilamiz. So'ng taassurotlarimizni ularga so'zlab bera-miz, — deydi Aziza.

Sportchi, rassom, kitobxon tengdoshingizga yuksak parvozlar tilaymiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Lesson 22

Everyone knows that for pupils favourite season of the year is summer. Because they may free from school. Not only from school but also from homework, from teachers, and lesson. Now, we show you some school idioms.



Painter: Youssouf HAMBEKOV

Read the idioms and try to make up the sentences.

As easy as ABC – very easy to understand.

Bookworm – your friend who likes to read a lot.

Copycat – you may use this idiom when your schoolmate copies the work of another person.

Drop out of school – to stop going to school.

Flunk out – to fail a course.


Teacher's pet – you may use this idiom if your teacher praises to you.

On May 25 is last day of school and we call this day drop out of school. During my summer holiday I like to read interesting books. My friend Aziz also bookworm boy like me. His favourite subject is math...

SYNONYMS

Write the suitable synonyms.

Significant,
bizarre,
inelegant, strange,
devoted, rapid,
dedicated, weird, swift,
eventful, speedy,
meaningful.



Dinora ABDULLAJONOVA

«TONG YULDUZI» DAN MINNATDORMAN

Sevimli gazetamga obuna bo'lganimdan buyon undagi turli maqola va hikoyalarni muntazam o'qib bormoqdaman.

Menga ayniqsa, «Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasidagi «Funny English» va «Useful English» kabi test va topshiriqlarni yechish zavq bag'ishlaydi. Qizlar uchun qiziqrari va foydali bo'lgan «Pazanda qizga» rukni ham juda yoqadi. Ushbu sahifada berilayogan turli taom va pishirilqlarni o'zim ham tayyorlayapman. Bizni ijodkorlikka chorlab barkamlon inson qilib tarbiyalayotgan sevimli gazetamga minnatdorlik bildiraman.

Shahzoda SAYDULLAYEVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-umumta'l'm maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

QIZLAR SAMMITI

Toshkent shahrida ilk bor 200 nafardan ziyorat qizlar ishtirokida «O'quvchi qizlar sammiti» bo'lib o'tganidan xabareringiz bo'lsa kerak.

Ushbu tadbirda tumanimizdagi 27-umumta'l'm maktabining 10-sinf o'quvchisi Laylo opa san'at va ijod yo'nalishida chizgan libos eskizlari bilan ishtirok etdi. U qo'lga kiritgan sertifikatni ko'rib, Laylo opaga rosa havasim keldi. So'ng men ham Nukus shahri, «Progress» ta'l'im markazida bo'lib o'tgan «Respublika o'quvchi-qizlar sammiti»da «Media jurnalistika» yo'nalishi bo'yicha qatnashdim. O'z chiqishimda ekologik muammolar mavzusini ochib berishga harakat qildim. Yakunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Eng yaxshi ijodkorlik ishi» nominatsiyasida diplom bilan taqdirlandim. Ta'l'im maskanida o'tkazilgan tadbirda taniqli jurnalistlar Lazzet opa Berdimuratova va Lola opa Qallixanovalar bizga mahorat darslarini o'tdi. Sammitdan bir olam taassurot bilan ortga qaytar ekanmiz, bunday tadbirni tumanimizda ham o'tkazishni rejalashtirdik.


Go'zal REYIMBOYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi
19-umumta'l'm maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

4 PICTURES IN A WORD


What is similarity among the pictures?



Technics



Tong yulduzi



Ma'mura G'ULOMOVA

Painter: Sumbula MELIMURRODOVA

Bilimsizlik bilan ishga kirishsang,
Foydasi bo'lmaydi, qancha tirishsang!



VATAN QADRI

Vatani bor elning
baxti beqiyos,
Uz inson osmonda qiladi
parvoz.
Yurtim deya yashaydi,
yonib-kuyadi,
Eng oliv maqsadini –
shu deb biladi.

Vatanin asraydi
har qarichini,
Ko'zga surtadi
zar tuprog'ini.
Kelajagin qurur qilib
mustahkam,
Vatanning qadriga
yetgan bo'lmash kam.

Fotima NORMAMATOVA,
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanı
1-ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan
ixtisoslashtirilgan maktab-internatining
7-«A» sinf o'quvchisi

ILHOMIM JO'SHADI

Men tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar
ijodiyot markazidagi «Qaldirg'och» to'garagi
a'zosiman. Ustozimiz Xosiyat opa bizga qunt bilan
ijod sirlarini o'rgatib kelmoqda. Men gazeta-jurnal
va kitob o'qishga qiziqaman. O'zim ham ustozim
ko'magida she'r va maqolalar yozib turaman. Quyida
sizlarga «Bobodehqon» nomli she'rimni ilindim.



Sahar mardon uyg'onib,
Shoshar dalasi tomon.
Mehnat qilib tolmayin,
Yetishtirar paxta, don.

Xalqimga rizq ulashib,
Qut-baraka tilagay.
Saxiy bobodehqonim,
Qadrin el-u yurt bilgay.

Xurshidabonu TURG'UNBOYEVA,
Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi
30-umumta'lum maktabining 7-sinf o'quvchisi

KIMDA BO'LSA IQTIDOR, BAXT-U IQBOL UNGA YOR...

Bu maqolni bejiz keltirmadik. Iqtidor – insonning qanoti, u odamni yuksaklarga ko'tarib, orzular sari eltadi. Bugun oralaringizda iste'dodli o'g'il-qizlar shu qadar ko'pki, ularning qay biri haqida yozishni ham bilmay qolamiz.

IMKONIYATLAR – BIZGA QANOT

Zeboxon Xolimova – Namangan viloyatining Chortoq tumanidagi 2-umumta'lum maktabining 9-sinfida tahsil oladi. Ta'lim maskanida tashkil etilgan ingliz tili, ona tili va adabiyot, tarix kabi to'garaklarga qatnash bilan birga, karving san'ati, tikuvchilik, to'quvchilik, munchoqli bezak, sun'iy gul yasash san'atini ham o'rganmoqda. Bolaligidan she'riyatga oshino bo'lgan ijodkor qiz tengdoshlari hayoti, qolaversa, mamlakatimizda bo'layotgan ijobiyo o'zgarishlardan ilhomlanadi. She'rlari davriy nashrlarda tez-tez chop etiladi. Ijod namunalarini maktab, tuman va shahar miqyosida o'tkaziladigan bayram tadbirdarida o'qib beradi.

Yosh ijodkoring 2016-yilda «Baxt-u iqbolim Vatan» nomli ilk kitobi nashrdan chiqdi. Zeboxon ta'lim maskanlarida o'zi kabi shoira yoki yozuvchi bo'lish niyatida yurgan o'quvchilar bilan tanqli ijodkorining uchrashuvlari o'tkazilayotganidan behad minnatdar.

XORAZMLIK YOSH SHOIRA

Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 1-umumta'lum maktabining 7-sinf o'quvchisi Nozima Davletova ham yosh ijodkorlardan. U she'r yozishdan tashqari, sportning badiiy gimnastika turi bilan mutazam shug'ullanadi. Maktab yoshlar ittifоqining faol yetakchisi. Uning «O'zbekiston bor bo'lsin», «Hur O'zbekiston», «O'zbekimning



jasur o'g'loni singari kitoblari nashrdan chiqqan. Rasm chizish, kitob mutolaa qilish va shaxmat o'ynash jon-u dili. Nozima ko'proq hazil she'rlar yozishni yoqtiradi. Adabiyotga bo'lgan mehrini o'z vaqtida payqagan otasi uni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Xorazm viloyat bo'limi rahbari Gavhar opa Ibdullayevaning huzuriga olib borgani hali-hanuz yodida. U yerda shoir Ollobergan Po'lat bilan bo'lgan qizg'in suhbatni maroq bilan eslaydi. «O'z ustimda ishlashni, izlanishni kanda qilmayman», deydi Nozima.

Keling, uning ijodiga ham bir nazar tashlaymiz.

TELEVIZOR

Televizor ko'rishni,
Yaxshi ko'radi ukam.
Shuning uchun darsini,
Tayyorlaydi juda kam.


Tunov kuni dars qilmay,
Ekranga qarab qoldi.
Ertasiga maktabda,
Ikki bahoni oldi.

Shu kundan qildi qaror,
O'qyidi, ko'mas kino.
Barcha ishga ulguraro,
Oladi a'lo baho.

Bolajonlar, sizning maktabingizda ham
ijodkor, iste'dodli tengdoshlaringiz borligi,
shubhasiz. Ular haqida bizga, albatta, yozib
yuboring. Maktublariningizni kutamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

YURAKDAN JOY OLGAN IJODKOR



Borliqning be-nazir sir-sinoatlarini o'quvchiga ko'z-ko'z qilib, bola tilida bola qalbiga yetkazish, o'ynoqi so'zlarni topish baxti har qanday ijodkorga ham nasib qilavermaydi. Bolalarning sevimli shoiri Turob Yusufning she'rlarini o'qiganda, beixtiyor bolalik olamiga sho'ng'ib ketganday bo'lasisz. Ko'ngil bo'stoniga sayr etgan sayin dilingiz yayraydi. Tabiat jonlanib tilga kiradi. Uyg'oq bulutlarning shivirlashi sizni chuqur o'ya toldiradi. Barcha jonzotlar bilan bernalol tillasha olasiz. So'zlarimiz quruq bo'lmasligi uchun shoiring «Uyg'oq bulutlar» she'ridan misol keltiramiz:

Yasab kema o'xshovin,
Suzib yurar bulutlar.
Ayg'ir otday tushovin,
Uzib yurar bulutlar.

Qo'z'alar tog-qiriliklar,
Shiddatdan to'xtamaydi.
Uxlab yotar yeriklar,
Bulutlar uxlamaydi.

Yaqinda «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida shoiring «Sichqoncha sarguzashtlari» nomli she'riy to'plami chop etildi. Bolalar adabiyotini boyitishga o'zingin ulkan hissasini qo'shgan Turob Yusufning rangin satrлari o'ziga xos sodda va raxon tilda yozilgan. O'yaymizki, to'plamdan joy olgan she'rlar o'quvchilarni hech qachon befarq qoldirmaydi.

AXTAMQULI,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Turob YUSUF

TOSHOYNAGA




Toshoynasan, ko'makka,
Eng kerak payt yaraysan.
O'zingday toshoynaga,
O'zing qachon qaraysan?

TISHLANGAN POMIDORNING DEGANI

Sherlar ham lol og'riqdan,
Tortgan achchiq na'ramga.
Endi bo'lsa, illimos,
Tuz sepmanglar, yaramga.

SOATGA

Hisob yo'g'i – baxtsizlik,
Betinim «chiq-chiq»laysan.
Bizni mudom vaqtsizlik,
Dardidan qo'riqlaysan.



XONTAXTAGA

El yig'ilsa qoshingga,
Charchog'ing ketar arib.
Yashayapsan boshingda,
Dasturxonni ko'tarib.



«UMID NIHOLLARI – 2018»

YOSH LIK BAYRAMI

Maktab o'quvchilari o'rta bosqichida tahsil olayotgan sportsevar yoshlar badiiy gimnastika, badminton, basketbol, boks, voleybol, dzyudo, yengil atleti-



ka, og'ir atletika, sport gimnastikasi, stol tennisi, suzish, taekvando, futbol, shaxmat, erkin va yunon-rum kurashi, futbol kabi sportning 21 turi bo'yicha o'zaro bellashdi. E'tiborlisi, bahslarda o'quvchilar Olimpiada dasturidan o'rolg'an ko'plab sport turlari bo'yicha mahoratlarini namoyish etib, o'zlariga

Aziz tengdoshlar! Bilasizmi, ba'zi o'quvchilar jismoniy tarbiya darsida qatnashishni unchalik xushlamaydi. Mashg'ulotlarda sport formasini olib kelmay, ustoza turli bahonalarni ro'kach qiladi. Aslida, bu holning sababi dangasalikdir.

Ayniqsa, o'g'il bolalarga ushbu odad sira yarashmaydi. Bundaylar kun kelib, uyalib qolishi tayin.

XATOSINI

TUSHUNDI

Sanjar ham ana shunday dangasa o'quvchilardan edi. Ammo, bir kuni sinfonada do'stlari bir-birligiga musobaqalarida olgan medal va faxriy yorilqlarini ko'rsatayotib, chekkada turgan Sanjardon «Sen-chi, nega jimsan, nima uchun sport bilan shug'ullanmays?» deb uni izza qilibdi. O'g'il bolaga nimjonlik, erinchoqlik yarashmaydi, deya biroz ustidan ham kulishibdi. U uyga boriishi bilan oyisiga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Shunda onasi:

– Do'stlarin to'g'ri aytdi. Sen na jismoniy

tarbiya darsiga qatnashasan, na biror uy yushmanlariqa qarashasan. Axir o'g'il bola baqvavat, harakatchan bo'lishi zarur, – debdi.

Shu kundan boshlab Sanjar jismoniy tarbiya darsida faol qatnashishni odad qildi. Do'stlari bilan birga sport klubiga a'zo bo'ldi. U sinfdagi eng faol, tirishqoq o'quvchiga aylandi.

Shahina ILHOMOVA,
Toshkent shahar,
Yunusobod tumanidagi
17-umumta'l'm maktabining 5-«Z» sinf
o'quvchisi

bildirilgan yuksak ishonchni to'la oqladi.

Musobaqada epchil va chaqqon yigit-qizlar o'z hududi sharafini munosib himoya qildi. Bahslar yakuniga yetgach, «O'zbekiston» sport mafmuasi «Umid NIHOLLARI – 2018» sport musobaqalarining tantanali bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda so'zga chiqqanlar yurtimda barcha jabhalar qatori sport sohasida olib borilayotgan tub islohotlar yuksak samaralar berayotganini ta'kidladilar.


Yakundan chilonzorlik sportchilar umumjamoa hisobida faxrli 1-o'rinni qo'liga kiritdi va Prezident sovg'asi – «Damas» avtomobili bilan taqdirlandi. 2- va 3-o'rinnlar Yunusobod va Mirobod tumani yoshlariga nasib etdi.

«Umid NIHOLLARI – 2018» sport musobaqalarining qolgan hududlardagi final bosqichi bahslari yuqori kayfiyatda bo'lib o'tdi.

S. TURSINOV

Nazarbek Botirov va Gulsanam Muhammedovalar maktabda a'lo baholarga o'qiydi. Ular to'rt yildan buyon sportning kikboksing va badiiy gimnastika turi bilan shug'ullanib keladi.

SINF DOSH CHEMPIONLAR



Nazarbek 2017-yil Samarqand shahrida o'tkazilan xalqaro musobaqada hamda Qashqadaryo, Buxoro va Toshkentda o'tkazilgan Respublika ochiq championatlarida 1-o'rinni qo'liga kiritgan.

Gulsanam esa 2017-yil Toshkentda o'tkazilgan Respublika ochiq championatida 1-, Sirdaryo viloyatida esa 2-o'rinni egallagan.

O'quvchilarimning kelgusida jahon championi bo'lishlariga tilakdoshman.

Shahzoda BERDIYEVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 8-umumta'l'm
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

SPORTCHILARIMIZ G'ALABASI

Armaniston poytaxti Yerevan shahrida ilk bor Ararat kubogi o'tkazildi. Musobaqa doirasida jahon an'anaviy Karate-do Federatsiyasi Prezidenti, 8 DAN qora belbog' sohibi Vladimir Kvichinskiy tomonidan 3 kunlik o'quv seminari o'tkazildi.

Ikki kun davom etgan bahslarda O'zbekiston, Armaniston, Isroil, Eron, Polsha, Rossiya va Moldova davlatlaridan sportchilar qatnashdi.

Jami 1000 nafarga yaqin sportchi orasida O'zbekiston terma jamoa a'zolari 12 kishilik tarkibda ishtirot etdi. Hamyurtimiz Zarif Boltayev hakam sifatida bahslarni baholab bordi.

Quvonarlisi, jamoaviy kumite bahslarida Umed Radjabov, Shahzod Meliulov va Bobur Xudoynazarov 3-o'rinni egalladi. Enbu bahslarida esa Sh.Meliulov va Bobur Xudoynazarov 2-o'ringa sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi IIV 1-Toshkent akademik litseyi o'quvchisi Shahlo Po'latova kumite bahslarida 3-o'rinni qo'liga kiritdi. Samarqand viloyati, Urgut tuman BO'SM tarbiyalanuvchisi E'zoza O'sarova esa kata bahslarida 2-o'ringa loyiq topildi.



Shohruh MUSAYEV

KUY-QO'SHIQQA TO'LSIN, BOLALIK!

«Oyijon, oyijon-ey,
Boshginam og'riydi-yo...»

Kovushim, jon kovushim,
Bog'larni kezgan kovushim...

Yuqoridaq satrlar bilan boshlanuvchi dillotortar qo'shiqlarni zavq bilan ijro etayotgan qizaloqlarga qarab, beixtiyor. Siz ham birga xirgoi qilgingiz keladi. Axir, bugun bayram, katta tomosha. 1-iyun – «Xalqaro bolalarim himoya qilish kuniz munosabati bilan tashkil etilgan telemarfonda faol ishtirot etayotgan qahramonlarning quvonchi cheksiz. «Gavhar» nomli folklor ansamblining raqqosa qizlari bu kabi qo'shiq va raqslarni ustozlari Zilola opa Karimovadan o'rgangan. Fursatdan foydalaniib, Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi 15-«Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilaridan tashkil



topgan dasta a'zolari bilan yaqindan tanishdirik. Umida Boltaboyeva ke-lajakda raqqosa bo'lishni orzu qilar ekan. Angelina Dubova esa raqs harakatlarni aniq bajarishda sport to'garaklarida bajaradigan mashqlari qo'lli keliшини aytdi. Nozima Tojiboyeva, Malika Saydullayeva, Laylo Shari-fullina kitob o'qishni yaxshi ko'rishi

haqida gapirib berdi. Sevinch Jo'rayevani esa ustoz «shoira qizim» deb tanishitridi. Uning she'riy mashqlarini tinglab, bejizga bu qalbi-daryo, san'atsevar qizlar davrasiga oshiqmaganimizni angladik. Bir-birdan quvnoq, iste'dodli qizlar esa bayram

bahona poytaxtga kelganliklaridan, qolaversa, gazetamiz qahramoniga aylanganliklaridan benihoya xursand edi.

Tilagimiz, Vatan va ustozlar mehriga suyanib yashayotgan bu o'quvchilar qatori yurtimizdagi har bir bolanning ko'ngli butun, quvonchi cheksiz bo'lsin!

Sayyora QODIROVA



BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIRI!

Aylanma skanvord javoblarini topib hal etgandan so'ng, chizmaning o'rta qismidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar bilan almashtirish orqali muammonomani hal eting. Bunda ulardan bolalik madh etilgan o'zbek xalq maqollaridan uchtasini bilib olasiz.

Danakli hot meva	1	To'rt misrali she'r	5	O'zbek mumtoz shoiri	2	Uchish apparati	3	Habib ... (bolalar shoiri)	6	Qashqadaryo viloyati tumani	7	Sut mahsuloti	4	Kemi-ruvchi
Uzunyoq qush	8												Viloyat mar-kazi	9
Xamirlili taom	10	*	5 4 15 11 *	6 11 15 5 1	*	12 14 17 12 1	*	9 7 15	*	15 4	-		Teng natijali o'yin	11
Tomonlarni ko'sratuvchi asbob	12	2 4 10* 16 1 16 9 *	15 11 *	5 1 15 11 16	12 14 17 12 1	7 8 16 1 16 9 *	5 1 15 11 16	15 4	-			Ish unumi	Vengriya avto markasi	13
Sport o'yini	13	12 14 17 12 1 *	5 1 15 11 16	11 *	15 11 *	5 1 15 11 16	15 11 16	11 13	*	3 11 13		Kasbga o'id nashr		14
Bahor ayyomi	14	5 4 15 11 *	4 1 15 11 16	1 16 9 *	3 11 13 *	5 7 15 5 7	15 5 7 15 1	1	*					
Ip o'rami	15	9 7 15 1 ,	... va Dimna" (asar)	Mo'jaz hajviy asar	Aniq fan	Yapon milliy libosi	O'zbek mumtoz shoiri	13	16	17				

28-may 2018

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

8



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
Qahramon QU'RONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sa'dullo TURSINOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navojo ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 65197
Buyurtma - V 1699

Tahririyatga kelgan
barcha qoloyzalar tahrir
qilinadi, mualliflarga
qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqt - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08